

O‘ZBEK YURIDIK TERMINOLOGIYASIDA O‘ZLASHMALARNING O‘RNI

**Urayimov Ulug‘bek Sarvarbek o‘g‘li
Tarjimonlik fakulteti 1-bosqich talabasi**

Ma‘lumki, dunyo tillari orasida sof tilning o‘zi yo‘q. Tilning sofliigi uning o‘z til so‘zlari hisobiga yashashi bilan belgilanmaydi. Tillarning o‘zaro omuxtalashishi, birining ikkinchisiga ta’sir etib borishi til jarayonining harakatdagi barqaror qonuniyatlaridan biri hisoblanadi. Bu hodisaning rang-barang tillarda me‘yoriy, me‘yordan past va me‘yordan ortiq ta’siri ko‘zga tashlanib, so‘z o‘zlashishining me‘yordan past va me‘yordan ortiq darajada harakatlanish holati til tizimida ma‘lum bir salbiy oqibatlarni yuzaga keltirishi mumkin.

Xar qanday til leksikasi til taraqqiyoti natijasida doimiy o‘z ichki imkoniyatlari asosida so‘z yasash, o‘zga tillardan so‘z olish, eskirgan so‘zlarning chiqib ketishi kabi ma‘lum bir o‘zgarishlar hisobiga tarixiy taraqqiyot bosqichlarini bosib o‘tadi. Leksik qatlam taraqqiyoti jamiyat taraqqiyoti bilan bog‘liqdir. Xalqlarning o‘zaro madaniy, siyosiy, iqtisodiy aloqalari tillarning omuxtalashish holatiga sabab bo‘ladi.

Xar bir til o‘z va o‘zlashgan qatlamiga ega. Ma‘lumki, o‘z qatlam o‘sha tilning tub so‘zlari hisoblanadi. O‘zlashgan qatlam esa, tarixiy taraqqiyot natijasida turli xil tashqi va ichki omillar natijasida shu tilga boshqa chet tillaridan kirib kelgan so‘zlar yig‘indisi hisoblanadi.

Yuridik soha terminologiyasida ham chet tillardan kirib kelgan o‘zlashma so‘zlar orqali yuritil til boyib boradi va bormoqda. O‘zbek tili yuridik terminologiyasiga turli davrlar mobaynida chet tillaridan bevosita va bilvosita chet tilidagi so‘zlar o‘zlashgan.

Terminlar, xususan yuridik terminlarni amalda qo‘llashda yuzaga keladigan omillardan yana biri shu sohaga turli chet tillardan o‘zbek tiliga so‘zlarning o‘zlashishidir. Chunki, birinchidan o‘zlashma so‘zning o‘z tilidagi asl ma‘nosi o‘zlashgandan keyin boshqa ma‘no anglatishidir. Shuningdek, o‘zbek yuridik terminologiyasida turli davrlarda o‘zlashgan so‘zlarni qo‘llash bilan bog‘liq

chalkashliklar yuzaga kelishi mumkin. Mana shu omillar bilan bog‘liq qiyinchilikni o‘rganish uchun o‘zbek tili yuridik terminologiyasiga o‘zlashma so‘zlarning tarixini ko‘rib chiqish maqsadga muvofiq.

O‘zbek yuridik terminlarining rivojlanish taraqqiyotini aniqlash maqsadida shariat manbalarini, ayniqsa, sobiq sovet hokimiyati davrida, ya’ni oktyabr to‘ntarishidan to hozirgacha qabul qilingan qonunlarni va bu davrda yaratilgan yuridik terminlar lug‘atini o‘rganib chiqdik.

Bu kuzatishlar 1920-2010 yillarda yuridik terminlar 5 davrni bosib o‘tganligini ko‘rsatdi. Bu davrlarni quyidagicha nomlash mumkin:

1. Arabcha yuridik terminlarning salmoqli o‘rin egallagan davri (1920-1937 yillar).
2. Ruscha (yevropacha) yuridik terminlarning majburan yoppasiga kiritilishi (1938-1950 yillarning o‘rtalarigacha).
3. Ruscha (yevropacha) yuridik terminlar kirib kelishining bir maromga tushishi (1950 yilning o‘rtalaridan 1990 yilgacha),
4. Ruscha (yevropacha) yuridik terminlarni o‘zbekchallashtirish jarayonining boshlanishi (1989-93 yillarda).
5. O‘zbek yuridik terminlari taraqqiyotining to‘g‘ri yo‘nalish tamoyillari belgilab olinishi.

Arabcha yuridik terminlarning salmoqli o‘rin egallagan davri

Ta’kidlanganidek, rus istilosigacha o‘zbek xalqining huquqiy tizimi shariat hisoblangan. Shariat normalari arab tilida bitilgan bo‘lib, shunga ko‘ra bu davrlarda o‘zbek huquqiy tushunchalari arab tilidagi so‘z va terminlar asosida yuritilar edi.

Oktyabr to‘ntarishidan so‘ng qozi sudlari yo‘qotilib, sovet sudlari vujudga keldi va shu davrlardan boshlab ko‘plab qonunlar qabul qilindi. Dastlabki yillarda o‘zbek yuridik tilini yaratish borasida, ya’ni rus tilida yozilgan qonunlardagi huquqiy so‘z va terminlarni o‘zbek tilida qanday ifodalash mumkinligi haqida ko‘pdan-ko‘p tortishuvlar bo‘ldi.

Ayrim olimlar ruscha yuridik terminlarni ilgaridan mavjud bo‘lgan, ya’ni shariat normalaridagi arabcha terminlar asosida yuritishni taklif qiladilar. Shu nuqtai

nazardan bu yillarda bir qancha yuridik terminlar arab tilidan olingan terminlar asosida yuritildi, masalan: *prokuror - muddai umumi, tomonlar - tarafaiyn, notarius - mukavala ma'muri, homiylik huquqi - vasoyat huquqi, ozodlik huquqi - varosat huquqi* tarzida.

Ayrim olimlar esa o'zbek yuridik terminlarini turkiy tillarga xos so'zlar asosida yuritishni ma'qul deb biladilar. Bu yo'lda ma'rifatparvar olim G'ozi Yunus tomonidan ko'p ishlar qilindi. U 1926 yilda "Ruscha-o'zbekcha qisqacha huquqiy va siyosiy lug'at"ni tuzdi. U lug'atda ruscha yuridik terminlarni turkiy so'zlar asosida berishga harakat qilgan, u bu ishda ko'proq buyuk jahongir Amir Temurning "Temur tuzuklari" kitobiga asoslanadi va ko'p yuridik terminlarni shu kitobdan oladi. Masalan: *sud-yorg'u, guvoh - ayg'ovchi, kodeks - tuzuk, sudya - yorg'uvchi*.

Shu terminlarga asoslangan holda 1926 yilda "O'zbekiston Ijtimoiy Sho'ro Jumhuriyatining jazo tuzugi" nomli jinoyat kodeksi, "O'zbekiston Ijtimoiy Sho'ro Jumhuriyatining jazo-yo'ruq tuzugi" nomli jinoyat-prosessual kodekslari nashr etildi.

Umuman, bu yillardagi qonun matnlariga nazar tashlaydigan bo'lsak, unda baribir arabcha yuridik terminlar salmoqli o'rin egallashini ko'rish mumkin.

Bu davrning o'ziga xos xususiyati sifatida shuni alohida ta'kidlash lozimki, bu yillardagi ayrim yuridik terminlarning dastlabki shakllari hozirgiga nisbatan huquqiy tushunchaning mazmunini to'g'ri ifodalagan. Jumladan, *jazo tuzugi, jazo-yo'ruq tuzugi, jinoyat muhokamasining qonunlar majmuasi, jazo huquqi* terminlari hozirgi *jinoyat kodeksi, jinoyat-prosessual kodeksi, jinoyat huquqi* terminlariga nisbatan huquqiy tushunchaning mohiyatini to'g'ri anglatgan. Shuning uchun ham bugungi kunda muammoli bo'lgan ayrim terminlar 20 yillarda qabul qilingan shakliga qaytmoqda. Jumladan, *inspeksiya o'rnida nozirlik, soyuz o'rnida uyushma, arxeologiya o'rnida osoriatiqa* terminlari ishlatilmoqda.

Ruscha (yevropacha) yuridik terminlarning majburan yoppasiga kiritilishi.

1938 yildan boshlab o'zbek qonunlarining matnlarida yoppasiga bir qancha ruscha yuridik terminlar qo'llanila boshlandi. Buni F.S. Bakirovning kuzatishlari ham tasdiqlaydi. Uning aniqlashicha, 1927 yilda nashr etilgan O'zbekiston SSR Jinoyat

kodeksining birinchi bo‘limida 41 ta yuridik termin mavjud bo‘lib, shundan 38 tasi arabcha, 3 tasi ruscha yuridik terminlar bo‘lgan. 1938 yilda qayta nashr etilgan kitobning shu bo‘limida 41 ta yuridik termindan 35 tasi ruscha yuridik terminga aylantirilgan, 6 tasi esa arabcha yuridik terminligicha qolgan yoki 1927 yilda chop etilgan O‘zbekiston SSR Jinoyat kodeksining “Davlatga qarshi jinoyatlar” bo‘limida 142 ta yuridik termin qo‘llanilgan bo‘lib, shundan 123 tasi arabcha, 19 tasi ruscha bo‘lgan. 1938 yilda qayta nashr etilgan shu kitobning yuqoridagi bo‘limida 142 ta yuridik termindan 129 tasi ruscha yuridik terminga aylantirilgan, qolgan 13 tasi arabcha yuridik terminligicha qolgan.

Umuman, bu yillarda (1938-1950 yillarning o‘rtalarigacha) ruscha yuridik terminlar majburan, (ularning o‘zbekcha muqobili bo‘lsada) sun’iy ravishda, yoppasiga olib kirila boshlandi. Bu yillarda amalda bo‘lgan qonun matnlariga nazar tashlaydigan bo‘lsak, unda quyidagi terminlar rus tilida qanday bo‘lsa, o‘zbek tilida ham shundayligicha ishlatilganini ko‘rish mumkin: *otvod, davnost, sekretar, protokol, zasedatel, sud sostavi, organ, opredeleniye, ekspert, svidetel, grajdanlik delosi, statya, shtraf, spravochnik* kabilar. Bu jarayon 1950 yillarning o‘rtalarigacha davom etdi. Bu davrda ruscha yuridik terminlar tarkibining keskin oshib ketishining sabablari, 1920 yillarning oxirlaridan boshlab sho‘rolar tomonidan “barcha tillarning assimilyasiyasi (birlashtirish)” siyosati olib borildi.

Ruscha (yevropacha) yuridik terminlar kirib kelishining bir maromga tushishi.

1950 yillarning o‘rtalaridan boshlab, ruscha yuridik terminlar kirib kelish jarayoni bir oz sekinlashdi. Bu davrga kelib, hatto, ayrim (1938-1950 yillarning o‘rtalarigacha ruscha bo‘lgan) terminlarni o‘zbekchalashtirishga erishildi, chunonchi, bu yillardagi qonun matnlarida ruscha *zasedatel - maslahatchi, opredeleniye - ajrim, svidetel - guvoh, statya - modda* tarzida berildi, lekin asosiy yuridik terminlar rus tilida qanday bo‘lsa, ularni o‘zbek qonunlarining matnlarida shundayligicha ishlatish davom etdi.

1959 yilda huquqshunos olim F. Bakirov tomonidan “Yuridik terminlar lug‘ati”, 1983 yilda F. Muhitdinov, K. Mirzajonovlar tomonidan “Yuridik terminlarning qisqacha ruscha-o‘zbekcha lug‘a-tspravochnigi” nashr etildi. Bu lug‘atlarda ham ayrim yuridik terminlarning o‘zbekcha muqobili bo‘lsa-da, ularning o‘rnida ko‘proq ruscha terminlarni berish tamoyiliga amal qilindi.

Ruscha (yevropacha) yuridik terminlarni o‘zbekchalashtirish jarayonining boshlanishi va undagi ayrim bir yoqlama harakatlar (1989-1993 yillar).

1989 yil 21 oktyabr o‘zbek tilining Davlat maqomini olishi va O‘zbekiston Respublikasining mustaqillikka erishganiligi sharofati bilan bugungi kunda o‘zbek yuridik tilini rivojlantirish yuzasidan ijobiy jarayon kechmoqda. Sobiq sho‘rolar hukmronligi davrida Rus va Yevropa tillaridan noo‘rin o‘zlashgan aksariyat yuridik terminlarning o‘zbekcha muqobil shakllari tanlanmoqda.

1993 yilda masalaning nihoyatda muhimligini hisobga olgan holda huquqshunos olimlar G‘.Ahmedov, A.Saidov, U.Bozorov rahbarligida “Yuridik terminlar va iboralar lug‘ati” yaratildi. Bu lug‘atda Yevropa tillaridan o‘zlashgan yuridik terminlarning o‘zbekcha muqobillarini berishga harakat qilingan bo‘lib, bu bilan lug‘atni tuzuvchilar oktyabr to‘ntarishidan so‘nggi dastlabki lug‘at tuzish an‘anasini davom ettirganlar.

Lug‘atning eng ahamiyatli tomoni shundaki, unda Yevropa tillaridan o‘zlashgan yuridik terminlarning o‘zbekcha muqobili o‘zbek xalqining, o‘zbek tilining ichki xususiyatlaridan kelib juda to‘g‘ri tanlangan. Masalan: *auksion* - *kim oshdi savdosi*, *gonorar* - *qalam haqi*, *dvoyevlastiye-qo‘shhokimiyatchilik*, *arest dissiplinarnyy* - *intizomiy qamoq*, *vyiezdnoye sudebnoye zasedaniye* - *sayyor sud majlisi* kabilar.

Ammo, lug‘atdagi barcha so‘zlarning, yuridik terminlarning o‘zbekcha muqobili to‘g‘ri tanlangan deb bo‘lmaydi, unda ayrim bir yoqlama harakatlar ham kuzatiladi. Chunonchi: *Veteran Velikoy Otechestvennoy voyny* - *Ulug‘ Vatan urushi kayvoniysi* (?) *Veteran Truda* - *mehnat kayvoniysi* (?) ya’ni veteran termini *kayvoni* deb beriladi. O‘zbek tilining izohli lug‘atida *kayvoni* so‘zining: 1) *dasturxonchi*

xotin, 2) *uy bekasi*; 3) *ko'p narsani biladigan, bilimdon* ma'nolari qayd etiladi. Ko'rinadiki, *kayvoniy* so'zi *veteran* terminining ma'nosini bermaydi.

Lug'atda rus tilidagi *yezдовыe* - *chopar, chavandoz, salt* (?) tarzida beriladi.⁸⁶ Bunda *salt* so'zi noo'rin tanlangan. Chunki *salt* so'zining ma'nosi: 1) *aravaga qo'shilmagan, aravasiz (ot haqida)*; 2) *yuksiz*, 3) *bekorga* ma'nolarini berib, umuman ot (hayvon)larga nisbatan ishlatiladi. *Yezдовыe* termini esa *ot* emas, balki *chavandoz, chopar* ma'nolarini anglatadi.

Lug'atda ayrim holatlarda rus tilidan o'zlashgan ikki termin o'zbekcha bir termin asosida beriladi. Masalan, *soyuz* va *assosiatsiya* - *uyushmalar uyushmasidir*.

Umuman, har qanday lug'atda bunday mulohazali o'rinlar bo'lishi tabiiy. Eng muhimi lug'atni tuzuvchi olimlar, birinchi navbatda, sof milliy o'zbek yuridik terminlarini shakllantirishga va rivojlantirishga harakat qilganlar va ma'lum ma'noda bunga erishganlar.

Bundan tashqari, mamlakatimizning mustaqil qonunchilik tizimi tantanasi o'laroq ko'pgina chet tillaridan noo'rin o'zlashgan yuridik terminlarning qonun matnlarida milliy-huquqiy shakllari berilmoqda, jumladan: *davnost* - *o'tgan muddat*, *sud sostavi* - *sud tarkibi*, *sekretar* - *kotib*, *zasedatel* - *maslahatchi*, *shtraf* - *jarima*, *spravochnik* - *ma'lumotnoma*, *otvod* - *raddiya*, *protest* - *e'tiroz*, *administratsiya* - *ma'muriyat*, *ma'muriy idora*, *kanselyariya* - *idora*, *devonxona*, *kabinet* - *devon*, *mahkama*, *viyemka* - *olib ketish*, *garantiya* - *kafolat*, *garov*, *dogovor* - *shartnoma*, *grajdanlik* - *fuqarolik*, *grajdanin* - *fuqaro* tarzida berilmoqda.

Bu o'rinda shuni alohida ta'kidlash lozimki, 1990 yillardan keyin ayrim yuridik terminlarning semantik tuzilishida ma'no o'zgarishlari ham yuz berdi. Jumladan, o'zbek tiliga arabchadan o'zlashgan *fuqaro* so'zi 1990 yillarga qadar quyidagi ikki ma'noni ifodalagan: 1) biror mamlakatning doimiy aholisi; 2) oddiy qora xalq vakili. Bu so'z o'sha yillarda asosan yuqoridagi ikkinchi ma'nosida ishlatilib, birinchi ma'nosini ifodalash uchun ruscha *grajdanin* so'zi ishlatilgan.

Hozirda *fuqaro* so'zi o'zining ikkinchi (oddiy qora xalq vakili) ma'nosini yo'qotib, mamlakatning doimiy aholisi ma'nosini to'la ifodalamoqda. Bunday ayrim

soʻzlarning oʻz taraqqiyoti davomida maʼno oʻzgarishiga uchrashi tabiiy holat hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI

1. Bektemirov *H.*, Xolmedov *H.*, Sodiqov *S.* Huquqshunoslikka oid oʻzlashma terminlar.
2. Sotimov Gʻ. Yuridik atamalarning inglizcha-ruscha-oʻzbekcha lugʻati. - T.: Adolat, 1998.
3. Hojiyev *A.* Termin tanlash mezonlari. – T.: Fan, 1996.
4. Mirzayev *M.*, Usmonov *S.*, Rasulov *I.* Oʻzbek tili. – T.: Oʻqituvchi, 1978. – 19-b.